O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 10 - oktabr 324-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrdagi 489-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahalla institutini jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ularning ochiq va oshkora faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, aholini jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga faol jalb etish, davlat organlari faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrdagi 489-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrdagi “Davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishning zamonaviy shakllari joriy etilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 18-iyundagi 380-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 489-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 18-iyundagi 380-son qaroriga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

“mahalla nazorati” va “mahalla raisi so‘rovi” institutlarini joriy etish;

har bir fuqarolar yig‘ini huzurida mahalla raisi rahbarligida mahalla nazorati guruhini tashkil etish;

mahalla nazorati guruhini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining namunaviy tuzilmasiga kiritish;

mahalla nazorati guruhi tomonidan aholi e’tirozlariga eng ko‘p sabab bo‘layotgan muammolarni aniqlash muntazam ravishda muhokamalar o‘tkazish;

mahalla fuqarolar yig‘ini kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari hamda mas’ul xodimlarining amalga oshirilgan ishlari bo‘yicha axborotlarini muntazam ravishda eshitib borish tizimli joriy eitlganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i A.Abdullayev, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda:

ikki oy muddatda Fuqarolar yig‘ini huzuridagi mahalla nazorati guruhi to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tegishli nizomlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishiga hamda ularning faoliyati samarali tashkil etilishiga har tomonlama ko‘maklashsin.

uch oy muddatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishga doir o‘quv seminarlarini o‘tkazsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**